

**TA'LIMDA MASOFADAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHNING
AFZALLIKLARI**

D.Q.Oxunova

FarDU o'qituvchi

oxunova2302@gmail.com tel:+998901602032

Annotatsiya

Ushbu maqolada masofaviy ta'limni afzalliklari, masofaviy ta'limdagi ahborot texnologiyalariga oid atamalar, masofaviy ta'limni tashkil etish shartlari va talablari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar

Virtual ta'lim, visual materiallar, teskari aloqa, o'quv telekommunikatsiya loyihalari, koordinator, moderator, telekonferensiya fasilatori, tyutor.

**ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ДИСТАНЦИОННОГО
ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**

Аннотация

В данной статье рассматриваются преимущества дистанционного образования, термины, связанные с информационными технологиями в дистанционном образовании, условия и требования к организации дистанционного образования.

Ключевые слова

Виртуальное образование, визуальные материалы, обратная связь, образовательные телекоммуникационные проекты, координатор, модератор, ведущий телеконференции, наставник.

ADVANTAGES OF USING DISTANCE LEARNING TECHNOLOGY IN EDUCATION

Abstract

This article discusses the advantages of distance education, terms related to information technologies in distance education, conditions and requirements for the organization of distance education.

Keywords

Virtual education, visual materials, feedback, educational telecommunication projects, coordinator, moderator, teleconference facilitator, tutor.

Pedagogik texnologiyalarning o'zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq. Pedagogik texnologiyalardagi o'zgarishlar asosan o'qitishdagi individuallik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining tanlash erkinligi, o'qitish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Buyuk ajdodlarimizning munozara yuritish va isbot-lash usuli, ta'limni erkin va mustaqil tanlashi dastlabki individual o'qitish tizimiga misol bo'la oladi.

Ta'lim islohotining hozirgi bosqichida o'qitishning zamonaviy texnologiyasi-masofadan o'qitish tizimi (MO'T) uchun qulay shart-sharoitlar yetildi.

Birinchidan, kompyuter kommunikatsiya vositalarining dastur-ap-paratini ishlab chiqish rivojlandi.

Ikkinchidan, kasbiy bilimlar eskirib, malaka oshirish va qayta tayyorlashga majbur etuvchi mehnat resurslari soni ortdi va endilikda o'qitishning an'anaviy shakllari orqali kasbiy mahoratni oshirish ehtiyojini qondirib bo'lmay qoldi: masofadan o'qitish orqali ta'lim jarayonini tashkil etish xarajatlarini pasaytirish evaziga uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyati tug'ildi.

Uchinchidan, jamiyatning ta'limni takomillashtirish va isloh qilishga bo'lgan ehtiyoji ortdi; ta'limni o'quvchi-talabalar ehtiyoji va real imko-niyatlarga ko'ra tashkil etish uchun sharoit yaratildi.

Masofaviy ta'lim (MO') – turli geografik mintaqalarda joylashgan o'qituvchi va o'quvchi-talabani bog'lovchi jarayon bo'lib, o'zaro aloqalar maxsus texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. O'zaro aloqalarni amalga oshirishda turlicha usullar qo'llaniladi: pochta va telefaks orqali tipografik bosma materiallar almashish, audio-konferensiya, video-konferensiya, kompyuter orqali virtual konferensiya. O'quv yurtidan uzoqda yashovchilar, qatnab o'qish uchun sharoiti bo'lmaganlar, malakasini oshirishni xohlovchilar, nogironlar va yana boshqa turli sabablarga ko'ra bevosita oliy o'quv yurtlarida bilim olish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar o'rtasida masofadan turib bilim va ta'lim olishga talab ortib borishi tabiiy. Ayniqsa, ish bilan band bo'lgan katta yoshdagi kishilar, ikkinchi mutaxassislik bo'yicha ta'lim olishni xohlovchilar uchun masofaviy ta'lim juda qulay vositadir.

Masofaviy o'qitish jarayoni ta'lim sohasiga nafaqat zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, balki bir qator yangi tushuncha va atamalarni ham olib kirdi:

- *virtual sinf (guruh);*
- *o'qitishning ta'minoti;*
- *o'quv telekommunikatsiya loyihalari;*
- *teskari aloqa;*
- *dialogli texnologiya;*
- *kompyuter aloqasi;*
- *telekonferensiya;*
- *koordinador, moderator, telekonferensiya fasilatori, tyutor.* [1-87]

Virtual sinf (guruh) – o'quv topshiriqlarini bajarishda o'quvchi-talabalarning kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiradigan birgalikdagi harakatlarining umumlashmasi.

O'qitishning ta'minoti – masofaviy ta'limda o'qituvchi tomonidan masofadan turgan holda o'quvchi-talabaga turli o'quv materiallari va ma'lumotlar orqali yordam berib borish.

O'quv telekommunikatsiya loyihasi bir maqsadga erishishga qaratil-gan o'quvchi-talabalarning birgalikdagi (jamoaviy) faoliyatlaridir. Bunda o'quvchi-talaba oldiga o'quv xarakteridagi maqsad emas, balki ilmiy yoki ishlab chiqarish faoliyatini modellashtiruvchi maqsad qo'yiladi. Shu bilan o'quvchi-talabalarga jamoa bo'lib ishlash, mehnatni taqsimlash kabi ko'-nikmalarni hosil qilishda yordam beradi. O'quv telekommunikatsiya loyihasining muhim belgilari:

- uning vaqti aniq va cheklanganligi (bir necha haftadan 2-3 oyga-cha muddat);
- virtual sinf hosil qiluvchi loyihaning barcha qatnashuvchilari o'zaro axborot almashishda kompyuter telekommunikatsiya tarmoqlar va dasturiy vositalardan foydalanishlari;
- loyiha kordinatori tomonidan o'quvchi-talaba faoliyatini aniq tashkil qilish zarurligi. [2-87]

Masofaviy o'qitishda teskari aloqa – masofaviy o'quvchi-talaba faoliyatini o'qituvchi tomonidan baholash natijasiga ko'ra pedagog tomonidan o'quvchi-talabaga yuborilayotgan axborot oqimidir.

Bu jarayonda pedagog o'quvchi-talabaning o'zlashtirishga o'z munosabatini bildiradi va uning faoliyatini baholaydi. O'z vaqtida va ratsional tashkil qilingan teskari aloqa o'qitish faoliyatini barqaror rag'batlantirish pozitsiyasining shakllanishiga olib keladi. An'anaviy o'qitishda teskari aloqa o'qituvchi tomonidan ovoz intonatsiyasi, turli mimika harakatlari orqali osonlik bilan o'rnatilishi mumkin. Masofaviy ta'limda o'qituvchi va o'quvchi-talabaning ko'pgina verbal imkoniyatlari cheklanganligi sababli ham teskari aloqa masofaviy ta'limni tashkil qilish va rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Dialogli texnologiya – erkin muloqot o'rnatishda dasturiy ta'minot, qurilmalar, shuningdek, shaxslarning o'zaro muloqotlari va faoliyatining uyg'unligidan iborat.

Telekonferensiya – manfaatdor kishilarning turli axborot va xabar-larni o'zaro almashish usuli. [3-587]

Masofaviy ta'lim hozirgi kunda dunyo miqyosida rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Bu o'qitishning asosiy texnologiya va usullari o'zgarmay qolgan holda asosan, yangidan-yangi texnik vositalarning rivojlanib, omma imkoniyatlari darajasida aylanib borayotgan-ligi bilan bog'liq.

Agar 80-yillarda masofaviy ta'lim uchun o'quv materiallari va ularni yetkazib berish o'qituvchi va o'quvchi-talaba orasidagi muloqotlar texnologiyasi anchagina sodda bo'lgan bo'lsa, o'sha yillar o'tib hayotga yangi texnik va texnologik vositalarning kirib kelishi bilan ahvol tamo-mila o'zgardi. Masofaviy ta'limga mikroto'lqinli televideniye, audiografik, siqilgan video, telekonferensiya, audiokonferensiya kabi turli interaktiv vositalar kirib keldi. Ular qatorida masofaviy ta'limda so'nggi paytda yanada yangi raqamlashtirilgan texnologiyalar qo'llanila boshlandi. U o'zida gipermedia programmalarini mujassamlashtirib, o'quvchi-talaba-ga o'quv-uslubiy materiallarni qay darajada o'zlashtirganligining nazo-ratini bevosita o'zi amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'ziga qulay, uyi yoki ish joyidan turib INTERNET yoki boshqa tarmoqlar orqali umumiy ma'lumotlar bazasiga, videokurslarga, audio-ma-teriallarga va boshqa dasturiy ta'minotlarga ulanishi va foydalanishi mumkin.

Masofaviy ta'lim quyidagi rivojlanish strategiyalariga ega:

1. O'quv muassasalari masofaviy ta'limni o'zlarining yakka dasturlari tarzida tashkil qilishdan chekinib, uni o'quv yurtlarining o'zaro munosabatlari ko'rinishiga olib chiqishi.
2. O'quv muassasalari aniq dasturlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga yangi texnologiya imkoniyatlarini moslashtirish maqsadida masofaviy ta'limni tashkil qilish va boshqarishni takomillashtirishi.
3. O'quv yurtlari masofaviy ta'limning maqsad va kelgusidagi holatini oydinlashtirib olishi zarurligi. Shuningdek, masofaviy ta'limning o'quv, texnik va ma'muriy maqsadlarini aniqlab olishi, masofaviy ta'limni yo'lga qo'yishda qanday o'quv dasturlari yutuqqa olib kelishi, masofaviy ta'limni joriy qilish ko'lamini qay darajada bo'lishi lozimligi kabi muammolar hal qilinishi.
4. O'quv yurtlari o'zaro birgalikdagi harakatlarining modelini ishlab chiqishi lozim. Bu model o'rta maktab, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, ishlab chiqarish bizneslarining potensial munosabatlari hamda mintaq, mamlakatdagi va boshqa chet el o'quv muassasalari bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishi lozim. [3-152]

Shunday qilib, masofadan o'qitishning innovatsion vositalarini jadal sur'atlarda tatbiq etish asosida ta'lim xizmatlari bozori yaratiladi. Bu juda muhim. Chunki masofadan o'qitishning vazifalaridan biri periferiya-da ta'lim sohasi iste'molchilarini oliy sifatli o'quv mahsulotlari bilan ta'minlash, eng sifatli didaktik mahsulotni tanlash huquqini taqdim etish hisoblanadi.

Masofadan o'qitish asosini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. MO'ning yuzaga kelishi jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy buyurtmalar bilan belgilanadi.
2. MO' kommunikatsiya vositalarining texnik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq, binobarin, u bu vositalarning evolutsiyasi bilan determinatsiyalangan.
3. Ta'lim jarayonida masofadan o'qitishdan foydalanish natijasida ta'lim tizimida o'qitishning sinxron jarayonidan asinxron jarayoniga; nafaol o'qitishdan faol o'qitishga; o'quv materialini statistik taqdim etishdan video va animatsiyalardan dinamik foydalanishga; real obyektlardan foydalanishdan virtual obyektlardan foydalanishga; o'quv materialini umu-miy tarzda taqdim etishdan individual ishga; o'quv materialini bir yo'nalishda taqdim etishdan hamkorlikda (interfoal) taqdim etishga o'tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 42-45.
2. Oxunova, D. (2022). O 'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Academic research in educational sciences, 3(2), 870-876.
3. Kakhhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. Miasto Przyszłości, 29, 6-7.
4. Kakhhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. Miasto Przyszłości, 29, 1-2.
5. Охунова, Д. К., & Шоюсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. Ученый XXI века, 45.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Катализатор реформинг курилмаларидан агфу-этан блоки курилмасига "курук газ" узатишда газ таркибидаги суюк углеводородларни ажратиш олиш схемасини тадбиқ этиш. Science and Education, 1(3), 212-216.
7. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2023). TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 183-187.
8. Madaminovich, P. K. (2023). TECHNOLOGICAL CALCULATIONS FOR THE PRODUCTION OF LIQUID CHLORINE CALCIUM DEFOLIANT. Journal of Modern Educational Achievements, 5(5), 363-373.
9. Madaminovich, P. X., & Hamroqulovich, M. M. (2022). PROCESSING OF FISH AND FISH PRODUCTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 212-215.
10. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2022, April). TARKIBIDA KARBAMID, KALSIYNING XLORAT VA XLORIDLARI TUTGAN SUVLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIKNI O 'RGANISH. In E Conference Zone (pp. 153-156).
11. Polvonov, X. (2022). PRODUCTION OF LIQUID CALCIUM CHLORATECHLORIDE DEFOLIANT AND ABOUT THIS. Scienceweb academic papers collection.